

O. Hasanboyeva, M. Inoyatova

ODOBNOMA

Umumiy o'rta ta'lim mакtablarining
1-sinfi uchun darslik

Qayta ishlangan va to'ldirilgan
yettinchi nashri

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi tomonidan
tasdiqlangan

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent — 2017

UO'T: 17=512.133(075.2)

KBT 74.200.51ya71

O-31

Taqrizchilar: **N. Komilov**

Z. Zamonov

— filologiya fanlari doktori, professor;

— O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta ilmiy xodimi;

Q. Xotamova — Toshkent shahar Yashnobod tumanidagi 30-maktab o'qituvchisi.

SHARTLI BELGILAR:



— o'qituvchi o'qib beradi;



— dono bobo o'gitlari;



— so'zlarni toping;



— maqollarni yod oling;



— savol va topshiriqlar;



— savollar;



— topshiriq;



— dars tugadi.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-07-473-6

© O. Hasanboyeva, M. Inoyatova. 2011, 2017.

© «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti, 2011, 2017.

O'ZBEKISTON — OZOD VA OBOD DIYOR

1-SENTYABR — MUSTAQILLIK KUNI



O'zbekiston 1991-yil 31-avgust kuni Mustaqillikka erishdi va O'zbekiston Respublikasi deb e'lon qilindi. Har yili 1-sentyabrdan Mustaqillik bayrami nishonlanadi.



BOBOLARDAN MEROS YURT



Obod o‘lka

O‘zbekiston kundan-kunga go‘zallashib bormoqda. Vatanimizda yangi, chiroyli binolar, ko‘priklar qurildi. Ravon, tekis yo’llar yotqizildi. Biz Vatanimiz bilan faxrlanamiz.

??

1. Ozod va mustaqil yurtimizda qanday yangi binolar qurildi?
2. Mahallangizdagi obodonlash-tirish ishlari haqida so‘zlab bering.



Vatanga mehr onaning allasi-dan boshlanadi.



?!
?

1. Biz yashayotgan yurt qanday ataladi?
2. Biz nima uchun Vatanimizni sevamiz?
3. 3–4-betlardagi rasmlar asosida Vatanimiz haqida so‘zlab bering.



O'ZBEKISTON — JANNAT YURT



Hur o'lkam

O'zbekiston — hur o'lkam,
Bag'ri to'la nur o'lkam.
Humo qushi boshingda,
Baxt porlar quyoshingda.

Mehrga kon, to'liqsan,
Otamizday ulug'san.
Sen quvonch-u faxrimiz,
Bag'ringda shod, baxtlimiz!

Dilshod Rajab

Bizning Vatanimiz — O'zbekiston.
Vatan — bizni o'rab turgan te-varak-olam.

O'zbekiston go'zal va serquyosh diyor. Davlatimiz ramzlarida ham yurtimizning boy tabiatи aks etgan.



O'zbekistonni nima uchun serquyosh o'lka deb ataymiz?



?

1. Vatanimiz Davlat madhiyasini yod oldingizmi?
2. Vatanimiz Davlat gerbida nimalar aks etgan?
3. O'zbekistonni nima uchun ozod o'lka deb ataymiz?
4. Katta bo'lganingizda vatanimiz ravnaqiga qanday hissa qo'shmoqchisiz?



VATAN BO'YLAB SAYOHAT



Toshkent — Vatanimiz poytaxti



Bepoyon Vatan

Vatanimiz keng va bepoyon. Uning har bir shahar va qishlog'i biz uchun aziz.

Biz Vatanimizni juda sevamiz. Kelajakda uning yanada farovon bo'lishiga hissa qo'shamiz.



Samarqand —
Sharq durdonasi



Nukus —
baxshilar yurti



Buxoro — tarixiy
obidalar shahri



Xiva — qadimiy
shahar



Toshkent, Samarqand, Nukus,
Buxoro va Xiva shaharlari
haqida nimalarni bilasiz?



Vatan — ona, ostonasi oltin.



OILA — KICHIK VATAN



Har bir insonning o‘z oilasi bor. Oilada ota-onas, buva-buvilar, aka-ukalar, opa-singillar ahil yashaydilar.

Ular bir-biriga har bir ishda yordam berishi lozim. Oila kichik Vatandir.



!

Oila a’zolaringiz haqida so‘zlab bering.



Kattani katta bil,
kichikni – kichik.




1. Rasm asosida oila a'zolari-ning ahilligi haqida so'zlab bering.
2. Rasmga qarab hikoya tuzing.



MENING OILAM

Oilaviy an'analar





?!
?

1. Rasmlarda qanday oilaviy an'analar tasvirlangan?
2. Ayting-chi, yana qanday oilaviy an'analar bor?
3. Oilangiz an'analari haqida so'zlab bering.



Xalqimizda qadimdan qariylarga katta hurmat va e'tibor ko'rsatilganini unutmang!



Kattaga hurmatda bo'l,
kichikka izzatda.



TAKRORLASH


?!
?

1. Mustaqil diyorimizning davlat bayrog‘ida nimalar tasvirlangan?
2. Go‘zal O‘zbekistonimizning tabiat haqida so‘zlab bering.
3. Oilaviy an'analar deganda nimalarni tushunasiz?
4. O‘z oilangiz haqida kichik matn tuzing.
5. Nima uchun oilani kichik Vatan deb ataymiz?
6. Xiva, Buxoro va Samarqand kabi shaharlarimiz nima uchun qadimiy va tarixiy deb ataladi?



ODOB — INSON UCHUN OFTOB

ODOB SALOMDAN BOSHLANADI



Yo‘l ustida uchragan
Kishiga bersang salom.
Alik olib avvali, so‘ngra
Der: “Rahmat, bolam”.

Salomsiz o‘tsang agar,
Sho‘rlik soqov ekan der.
Tiling bo‘lgach, albatta,
Kattalarga salom ber.

Tolib Yo‘Idosh



1. Nima uchun “Odobning boshi — salom” deydilar?
2. Qanday bolalar salomlashishni unutadilar?
3. “Assalomu alaykum”, “Va alaykum assalom” so‘zlarining ma’nosini izohlang.

Salomlashish odobi



Avval salom — keyin kalom.



Salomlashish bir-biriga sog'lik va tinchlik tilashdir.

Kattalarga qo'lingizni ko'k-singizga qo'yib, salom bering.



Kim birinchi salom beradi?

Salom berish insonning eng go'zal fazilatidir. Odatda, kichiklar kattalarga salom berishadi. Bu bilan ular kattalarga o'z hurmatini bildirishadi.



SALOMLASHISH QOIDALARI




?

1. Rasmlardagi holatlarni izohlab bering.
2. Ayting-chi, qanday holatlarda salom berilmaydi?



ODOBLI BOLA ELGA MANZUR

O‘quvchining odobi



?!
?

1. Odobli o‘quvchi maktabda o‘zini qanday tutadi?
2. Dars va tanaffus vaqtida rioya qilinadigan odob qoidalari ni aytib bering.



Ustoz – otangdek ulug‘.

Maktab qoidalari



Maktabda ustozlar va o'rtoqlaringizga hurmat bilan muomalada bo'ling. Bilimli o'quvchining asosiy fazilati uning odobidir.



KIYINISH ODOBİ



Orasta kiyinish deganda nima-ni tushunasiz?



Kiyimингиз озода ва тоза бо‘лсин. Кийимингизни кийим илгичда саqlang. Poyabzalingizni juft qilib, o‘z joyiga qo‘yishni unutmang.



?!

1. Qachon qanday kiyinishni bilasizmi?
2. Ota-onangizga yordam berغانизда qanday kiyinasiz?
3. Maktab va uy kiyimining farqini aytib bering.



Qayerda qanday kiyinish kerakligini bilib oling va unga amal qiling. Maktabdan qaytгach, uy kiyimingizni kiying.



Men kurash bilan shug‘ullaman. Kurash bilan shug‘ullanganda belga **b** **g’** bog‘lash lozim.



BOLA ODOBI BILAN GO'ZAL

Odob nima?



Odob so'zi bir so'z, lekin
Aytaversang turi ko'p.
Katta bir so'z deganda
Darrov desak — labbay, xo'p.
Va bajarsak biz ularning
Aytganlarin shu zamon,
Shuning o'zi bir odobdir,
Odobsizlik ko'p yomon.

Tolib Yo'Idosh



?

Rasmdagi qizchaning odobli
ekanini nimadan bildingiz?

Inoqlikka nima yetsin!



Diyora 1-sinfda o'qiydi. O'qish, yozish, misol va masalalar yechishni yaxshi ko'radi. Darslardan qiynalsa, akasi Davrondan yordam so'raydi. Davron — 4-sinf o'quvchisi, mактабда a'lо baholarga o'qiydi. Shuning uchun Diyoraning dars tayyorlashiga ko'maklasha oladi.



1. Diyoraga uy vazifalarini bajarishda kim yordam berar ekan?
2. "Men uy vazifasini qanday tayyorlayman" mavzusida kichik hikoya tuzing.



Amaliy mashg‘ulot



Hayo va ibo — qizlarimizning eng go‘zal fazilati. Qizlarim, hayoli va muloyim bo‘ling.



Uyat bo‘ladi

Nilufar va Aziza birga maktab-dan qaytar edi. Aziza oldinda suhbatlashib borayotgan qariyalardan



o'tib ketmoqchi bo'ldi. Nilufar dunganasini to'xtatib dedi:

— Shoshma, Aziza. Keksalardan oлdin yursang, uyat bo'ladi.

?!
?

1. Nilufar nega dugonasini to'xtatdi?
2. Nilufar Azizaga nima dedi?
3. Ayting-chi, qizlarning hayoli va iboli ekanligi yana nimalardan bilinadi?



Uyalishga sabab bo'ladigan xatti-harakatlardan saqlanish lozim. Kattalar oldida odob saqlash ham go'zal fazilatdir.



Hayolilik



DASTURXON ATROFIDA O‘TIRISH VA OVQATLANISH ODOBI



?!
?

1. Dasturxon atrofida o‘tirish va ovqatlanish odobi haqida qaysi qoidalarni bilasiz?
2. Rasmlardan dasturxon atrofida o‘tirish odobiga rioya qilinmaygan holatlarni toping.



Hikoya

Kechki taom payti edi. Husan taomni juda shoshilib yedi. Buni ko'rgan buvisi unga tanbeh berdi:

— Ovqatlanish odobining o'z qoidalari bor. Men uchtasini aytib bera-man. Odobli bola awval qo'llarini yuva-di — bu birinchisi. Ikkinchisi — o'zi-dan kattalardan oldin taomga qo'l uzatmaydi. Uchinchisi — taom yegani-da, qo'li bilan yerga tayanmaydi. Qol-ganlarini sen o'zing aytib ber-chi?!



1. Buvi ovqatlanishning qaysi qoidalari aytdi?
2. Ovqatlanish haqida yana qanday qoidalarni bilasiz? 

INSONNNI ULUG'LAYDIGAN FAZILATLAR



Jasur yigit

Bobom quyidagi voqeani aytib ber-ganlar: bir kishi tog' yonbag'rida oilasi bilan yashar va daryo ko'p-rigida qorovullik qilar ekan. Tog'dan sel kelib, uning uyi sel ostida qolib-di. Shunda bir jasur yigit kuchli sel bilan olishib, qorovul va uning oila-sini qutqaribdi. Bobom yigitni muko-fotlash uchun unga pul bermoqchi bo'libdilar.



Shunda yigit:

— Otaxon, pullarni qorovul amaki-ga bering. U uysiz qoldi, oilasi yor-damga juda muhtoj, — debdi.


Hamma jasur yigitga tasanno ay-tibdi.



Odamlar yigitga nima uchun tasanno aytibdilar?



Bolalarim, Vatan himoyasiga tayyor turish, ojizlarga shafqatli bo‘lish eng go‘zal fazilatdir. To‘g‘riso‘z va shafqatli bo‘ling.



Mard maydonda sinalar.

Mardlik — mangulik.



MEHNATSEVARLIK — GO'ZAL FAZILAT



Ipak qurti (masal)

Ipak qurti guldan gulga qo'nib-uchib yurgan go'zal kapalaklarga havas qilar edi. Chunki o'zi ular kabi ucha olmas edi-da. Lekin pilla o'rashda mohir edi. Shuning uchun u g'ayrat bilan pilla o'rashda davom etardi. Nihoyat, ipak qurti pillani o'rab bo'Igach, qattiq uyquga ketdi.



Uyg'onganidan so'ng pillani yorib, tashqariga chiqdi. Shunda u go'zal kapalakka aylandi va gulzor bo'ylab uchib ketdi.

Xulosa: Yaxshi o'qib, ilm egalla-sangiz, bir kuni kelib uning rohatini ko'rasiz.

- ?! 1. Qurtcha nima uchun kapalak-larga havas qilar edi?
2. Qurtchaning kapalakka aylanishi sababini aytib bering.



G'ayrat-shijoat — astoydil mehnat qilish, o'qish, dangasalik-dan yiroq bo'llishdir. Bolalar, albatta, g'ayratli bo'ling!



Kishining so'ziga emas,
ishiga boq.

Osh desa chopar,
Ish desa qochar.

Bugungi ishni ertaga qo'yma.



Gap bilan shoshma,
i bilan shosh!



ROSTGO‘YLIK — INSON KO‘RKI



Jasur — rostgo‘y bola. U doimo rost gapiradi. Shuning uchun o‘rtoqlari uni yaxshi ko‘rishadi.



Nega Jasurni o‘rtoqlari yaxshi ko‘rishadi?



Rostgo‘ylik doimo rost gapirishdir. To‘g‘riso‘zlik po‘sti achiq bo‘Isa-da, ichi shirin mevaga o‘xshaydi.

Hamisha to‘g‘riso‘z bo‘ling.



Boshingga qilich kelsa ham rost gapir.

Sher bilan Qirg'ovul



To‘qayda Sher bilan Qirg’ovul ahil yashar edi. Lekin Qirg’ovul yolg‘onchi edi. U do‘sti Sherni ko‘p marta aldagan edi. Sher unga yolg‘onchilikni tashlashni maslahat berdi. Lekin Qirg’ovul bu odatini tashlamadi.



Bir kuni Qirg’ovul ovchining to‘riga tushib qoldi. U do‘stini yordamga chaqirdi. Sher “Qirg’ovul yolg‘ondan chaqiryapti”, deb o‘ylab, yordamga kelmadni. Shu tariqa Qirg’ovul o‘z yolg‘onining qurboni bo‘ldi.

Alisher Navoiy



Yolg‘onning umri — qisqa.



KAMTARGA — KAMOL



Kamtarlik — o‘zini katta olmaslik va kishilar xizmatiga tayyor turish. Ishingiz va so‘zingiz bilan kishilarni quvontiring.



Manmanlikning oxiri — pushaymonlik

Qadimda bir maqtanchoq va manman boy yashagan ekan. Kunlardan bir kun u qattiq betob bo‘lib, yurolmay qolibdi. Qop-qop oltinlari uning kuniga yaramabdi.

Mehribon qo‘snilari boyning holidan xabar olib turishibdi. Turli dorilar tayyorlab, uni davolashibdi. Boy ularning parvarishi bilan tuzalib ketibdi. Sog‘ vaqtida qo‘snilariga manmanlik qilganidan juda uyalibdi.

Shunday qilib, boy manmanlikni tashlab, insonlar qadriga yetadigan bo‘libdi.



1. Boy qo‘schnilarini nima uchun nazar-pisand qilmas edi?
2. Boy kasal bo‘lib qolganida uning kuniga kimlar yaradi?
3. Ayting-chi, odamning manman ekanini qanday bilish mumkin?



Kamtarlik – katta davlat.

Kamtarning yuzi – ko‘rkam.

Manmandan maslahat kutma.

Ko‘kka boqqan yiqlur,
Loy-botqoqqa tiqlur.



ILM VA HUNAR O'RGANISHGA INTILING


KITOB — BILIM CHIROG'I



Kitob o‘qish va ilm o‘rganish uchun yoshlik davri eng qulay hisoblanadi. Yoshlikda o‘rganilgan ilm toshga o‘yilgan naqshdir. Ilm-hunar o‘rgangan kishi hech qachon xor bo‘lmaydi. Yaxshi o‘qib hamda hunar egal-lab, o‘z orzularingizga erishing.

Kitobda aks etgan ilm yoqimli atirgul hidiga o‘xshaydi. Uni yashirib bo‘lmaydi.

Yusuf Xos Hojib



BILIM OL, HUNAR O'RGAN!

Bilimli, hunarli bo'l,
Degan dono bobolar.
Ularning qudratiga
Tan bergandir dunyolar.
Ilm-hunar o'rgansak
Mehr qo'yib maktabga,
Biz, albatta, yetamiz
Orzularga, maqsadga.

Dilshod Rajab

Turli ilmlarni qunt bilan o'rgan.
Bilimlarni yodda saqlashni odat qil!

Alisher Navoiy



Bilim olish va hunar egallash
har bir o'quvchining asosiy
burchidir.



Aql yoshda emas, boshda.
Bilim — aql chirog'i.

Hunarli va hunarsiz

Hunarli-yu hunarsiz qanday bo'lar?
Bir-biriga teskari doim ular.
Bittasining qo'lida g'ayrati bor.
Bittasining ko'nglida hasrati bor.
Bittasining gap-so'zi iliq bo'lar.
Bittasining har so'zi sovuq bo'lar.
Bittasining mehnatda qo'li o'ynar,



Bittasining hayratda ko‘zi o‘ynar.
Hunarlini maqtashga so‘z yetishmas,
Hunarsizni yozishga til kelishmas.
Ey, bolalar, misoldir, bular sizga.
Sira-sira o‘xshamang hunarsizga.

Po‘lat Mo‘min

Hunarsiz kishi bilan do‘s^t bo‘lma.

“Qobusnoma”dan



Hunarli kishiga xos fazilatlar nimalardan iborat?



Hunar mehnat va harakat tufayli qo‘lga kiritiladi. Rizq-ro‘z kasb-hunar sababli hosil bo‘ladi. Hunarmand bo‘lsangiz, hurmat-e’tiborga sazovor bo‘lasiz.



Hunar — h █ █ r dan zar unar.

Hunarsizga k █ █ yo‘q.



HAR KASBNING O‘Z XISLATI BOR

Kasb-hunarli inson xor-u zorlik ko‘rmaydi. Donolar shunday o‘git beradilar: “Har kim o‘ziga xos va mos kasb-hunar tanlasa, u baxtlidir”. O‘ziga nomunosib ishga kirishgan kishi ishning uddasidan chiqa olmaganidan uyatga qoladi.



Kasb-hunar egasi bo‘lish uchun yoshlikdan qunt bilan o‘qish lozim. Bilmaganingizni so‘rab bilishdan va o‘rganishdan uyalmang.



Yigit kishiga **q**
hunar oz.



REJALI ISH — PAND BERMAS



Rejali bo‘lish – bu yaxshi o‘qish, odobli va tartibli bo‘lish, sog‘lom yashash degani. Rejali bola qiladigan ishlarini oldindan rejalashtirib oladi va barcha ishlarini vaqtida qilishga harakat qiladi.

Rejali bo‘lishning uch muhim qoidasi bor: birinchisi – kun tartibiga rioya qilish, ikkinchisi – intizomli bo‘lish, uchinchisi esa – doimo harakatda bo‘lish.



Baxt izlasang – rejali bo‘l.
(tojik maqoli)

Erta turganning ishi
erta bitar.
(turkman maqoli)

Erta turishning xosiyati

Ey farzand, bilginki, ko‘p uqlash — yomon odat. U kishini lanj va dangasa qiladi.

Uyqu uchun ko‘p vaqt sarflab, kunduzni kechaga aylantirma.

Erta turishni odat qil.

“Qobusnama”dan

Vaqtni qadrlang!



1. Nima uchun erta turish kerak?
2. Erta turishning xosiyati haqida maqollar toping.



XAVFLI VAZIYATLARDA TO‘G‘RI HARAKAT QILISH

Aziza bu yil birinchi sinfni tugatayapti. Navbatdagi o‘quv mashg‘uloti boshlandi. Shu payt maktab binosini tark etish to‘g‘risida buyruq berildi.



Aziza o‘rnidan turib, xuddi o‘qituvchisi Muqaddas opa o‘rgatganidek, partadoshi Ahmad bilan eshik oldiga borib turdi. Sinfdoshlар shovqinsuronsiz, tartib bilan o‘ng tomondan yurib, maktab hovlisiga chiqa boshladilar.

Ammo 3-“A” sinf o‘quvchilari shunaqangi chopib chiqdilarki, Gulnoza ismli qiz yiqilib ham tushdi. O‘rtoqlari unga yordam bermay, turtib o‘tib ketishdi.

Ular bir-birlarini turtib, shovqin bilan sport maydoniga chiqib kela boshlashdi. Holatni kuzatib turgan maktab rahbari: “Ukalarингизга qаранглар, qоидаларга rioya qilgan holda, tezlik bilan binoni tark etдilar”, – dedi. Shu kuni Azizaning sinfi maktab direktoridan olqish eshitdi.

Nargiza Ismatova

?!
?

1. Maktab rahbari Azizaning sinfini nima uchun maqtadi?
2. 3-“A” sinf o‘quvchilari harakatiga baho bering.
3. Bunday vaziyatda siz qanday harakat qilasiz?
4. Xavfli vaziyatlarda bir-biriningizga qanday yordam berasiz?
5. Xavfli vaziyat yuz bergenida qaysi yo‘laklardan harakatlanish mumkinligini ko‘rsatuvchi xarita chizing.

QO'SHIMCHA O'QISH UCHUN

Kun tartibining foydasi



Zarifa va Kamol – sinfdosh. Zarifa a'lo baholarga o'qiydi. Kamol esa uy vazifalarini bajarishga ulgura olmaydi.

Bir kuni Kamol Zarifadan so'radi:

– Sen sport to'garagiga borasan, yaxshi o'qiysan. Oyim yaxshi o'qisang, futbolga qatnashasan, dedilar. Nima qilsam ekan?

– Men o'zim uchun kun tartibini tuzib olganman. Unga rioya qilaman,
– dedi Zarifa.

Kamol uyga borib kun tartibini tuzdi. Unga sport to'garagi mashg'ulotlarini ham kiritdi. Tez orada Kamol

yaxshi o‘qiy boshladi. Sport to‘garagiga bordi.

Sizningcha, Kamol kun tartibiga nimalarni kiritgan? Siz ham o‘zingiz uchun kun tartibini tuzib ko‘ring-chi!



1. Siz kun tartibiga rioya qilasizmi?
2. Uy vazifasini vaqtida bajarishning foydasi nimada?
3. Ota-onangiz ko‘magida o‘zingiz uchun qulay kun tartibi tuzing va unga amal qiling!
4. “Rejali ish naf keltirar” mavzusida matn tuzing.





KIM BO'LSAM EKAN?

Muxtor: "Katta bo'lsam, al-batta, me'mor bo'laman. Ulkan uylar quraman. Me'morlik — eng yaxshi kasb", — dedi. Munisa esa: "O'qtuvchilik barcha kasblardan yaxshiroq", — dedi. Bahsga Ravshan aralashdi. "Eng zo'r kasb — haydovchilik", — dedi u. Birov tikuvchilik, birov oshpazlik, yana birov shifokorlikning eng zo'r kasb ekanligini uqtirdi. Hurmatli o'quvchi, qani aytingchi, siz kim bo'lishni istaysiz?



1. Bolalar nima haqida bahslashdilar?
2. Ayting-chi, siz qaysi kasbni eng yaxshi kasb deb hisoblaysiz?



QO‘G‘IRCHOQ TEATRI – TARBIYA MASKANI



Qadim zamonalarda ko‘chada, ochiq maydonlarda, to‘ylarda yorqin rangli yog‘och toychoq mingan qo‘g‘irchoqboz amakilari kichkintoylarga tomoshalar ko‘rsatgan.

Hozirgi kunda yurtimizda qo‘g‘irchoq teatrлари juda ko‘p. Ularda odobli, mehnatsevar Zumrad va quvnoq Kachal polvon haqida qo‘g‘irchoq teatrлари namoyish qilinadi. Qaysi yurt tinch, osmoni musaffo bo‘lsa, u yerda qo‘g‘irchoq teatrлари ko‘p bo‘ladi.



O‘qituvchingiz yordamida odobli va mehnatsevar ertak qahramonlari haqida qo‘g‘irchoq teatri ssenariysini tuzing.



MENING QO‘G‘IRCHOQLARIM

Qo‘g‘irchoqlar mamlakatida

Qo‘g‘irchoq teatri shaharning markazidagi katta binoda joylashgan. U yerda Aziz ko‘pgina ertaklarni tomosha qilgan. Chunki u qo‘g‘irchoq teatrini juda yaxshi ko‘radi. Yaqinda otasi Azizga qo‘l bilan o‘ynatsa bo‘ladigan Nasriddin Afandi qiyofasidagi qo‘g‘irchoqni sovg‘a qildi. Aziz “Qo‘g‘irchoqlar mamlakatida” degan ertak to‘qidi. Keyin akasi bilan birga o‘rtoqlariga tomosha qo‘yib berdi. O‘rtoqlariga ham bu o‘yin yoqib qoldi.




!

Qo‘g‘irchoq teatrida rioya qilinadigan odob qoidalarini sanab bering.

Qo‘g‘irchoq

Erkatoym qo‘g‘irchoq,
Sochi mayin qo‘g‘irchoq.
Sovg‘a qilib to‘yingga,
O‘Ichab mitti bo‘yingga.
Tikdim jajji ko‘ylakcha,
Avvalgidan bo‘lakcha.
Tovlanadi xuddi zar,
Kiysang, quvonar do‘stlar.

Ergash Yondosh



?

Rasmda qaysi ertak qahramonlari tasvirlangan?



Maqtanchoq quyon

(ertak-masal)

Bir kuni Olaquyon maqtanib: “Bo‘ridan sira qo‘rqmayman”, debdi. Buni eshitgan Bo‘ri Olaquyonning yo‘lini to‘sibdi. Olaquyon qo‘rq-qanidan shunday sakragan ekan, Bo‘rining boshiga chiqib qolibdi. Bo‘ri uni irg‘itib yuboribdi. Olaquyon qochib, o‘rtoqlariga yetib olibdi.

— Xayriyat, tirik ekansan! — deyishibdi ular. Olaquyon yana maqtana boshlabdi:

— Ochko‘z Bo‘rini bir tepib, o‘ldirib qo‘ydim.

Quyonlar unga rahmat aytishibdi.

— Ha, sizlarni men qutqardim, — debdi Olaquyon. Lekin qo‘rqanidan atrofiga olazarak qarab olibdi. Chunki u maqtanchoq va qo‘rvoq ekan-da.



Ertak-masal asosida qo‘g‘ir-choq teatri sahnalashtiring.



AJDODLAR XOTIRASI ABADIYDIR

9-MAY — XOTIRA VA QADRISHASH KUNI



Vatan fidoyilarini xotirlash bur-chimizdir. Qariyalar va bemorlar holidan xabar olish go'zal fa-zilat hisoblanadi.

Sharafli burch

Alisher Navoiy mulozimlari bilan sayrdan qaytib kelayotgan ekan. Qabristonga yetgach, otdan tushib, piyoda ketibdi. Mulozimlar ham undan o'rnak olib, otdan tushibdilar. Qabristondan uzoqlashgach, barchalari otga minibdilar. Mulozimlar Alisher Navoiydan qabriston yonidan piyoda o'tganlarining sababini so'rashibdi. Ulug' shoir shunday deb javob beribdi:

— Bu yerda xalqimizning jigargo'-shalari, tabarruk zotlar mangu uy-

quda yotibdilar. Bular yonidan ot choptirib o'tish insonlik sha'niga isnod. Ota-bobolar xotirasini e'zozlash sharaflı burchimizdir.



Ziyorat vaqtida ajdodlarimizning ibratli ishlarini yodga olish, qariya va bemorlarga yordam ko'rsatish ziyorat odobiga kiradi.

?

1. Ajdodlar xotirasini e'zozlash haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Ayting-chi, ziyorat vaqtida nimalarni qilib bo'lmaydi?



JONIVORLARGA G'AMXO'R BO'LING

O'ZBEKISTONNING HAYVONOT OLAMI



Hayvonot olami juda boy. Siz yaxshi ko'r radigan ertaklardagi qahramonlarning ham ko'pchiligi hayvon va parrandalardan iborat. Masalan, ot, yo'lbars, sher, kiyik, kalxat, oqqush va boshqalar.

Bolalar, yodingizda tuting!

Jonivorlarga ozor bermaslik, ularning yashashi uchun sharoit yaratish, yemish berish olijanob fazilat sanaladi.



?

1. Rasmda qaysi jonivorlar tasvirlangan?
2. Yurtimizda bu jonivorlarni muhofaza qilish uchun nimalar qilinadi?
3. Siz jonivorlarga qanday g'amxo'rlik qilasiz?

Kapalak



Sira ham kapalakka,
Bolajonim, otma tosh.
Ko'ryapsanki, mitti jon
Gul kabi nafis, yuvosh.
Bog'-u gulzorimizda
Ne istasa yursin yeb.
Chunki kapalaklar ham
Tabiatga chiroy, zeb.

Oollobergan Po'lat

?

Nima uchun kapalaklarga ozor bermaslik kerak?



JONIVORLARGA G‘AMXO‘RLIK — EZGU FAZILAT

Chumchuqbola

Tal’at Boboxonni ko‘rdi-yu, qovog‘i solindi. Uning qo‘lida oyog‘iga ip bog‘langan kichkina chumchuqbola bor edi. Tal’at chumchuqbolani qo‘yib yuborishini so‘rab, Boboxonga yalinib o‘tirmadi. Chunki Boboxon juda o‘jar bola edi.

— Boboxon, chumchuqni qayerdan olding? — deb so‘radi Tal’at.

— Bug‘doyzordan, chigirtka tut-ganimda do‘ppim bilan urib yiqitdim.

— Mana bo‘yoq qalam. Shunga alishmaysanmi?

— Fi-i! Tirik chumchuqni bitta qalamgami? Boshqa narsang yo‘qmi?

— Agar xo‘p desang, mana bu o‘chirg‘ichimni ham beraman.

Boboxon chumchuqbolani berdi. Keyin qiziqsinib:

— Buni alishvolib, nima qilasan? — dedi.

— Hozir bilasan nima qilishimni.
Tal'at chumchuqbolaning oyog'idan avaylab ipni yechdi. Yuragi duk-duk urayotgan bechora qushchani bir-ikki siladi-da, keyin birdan osmonga qo'yib yubordi: «Bor, uchaver!». So'ng Boboxonga yuzlandi.

Boboxon goh qo'lidagi o'chirg'ich bilan qalamga, goh pat-pat qanot qoqib, bug'doyzor tomon uchib ketayotgan chumchuq bolasiga, goh kulimsirab turgan o'rtog'i Tal'atga javdirab, nima qilishini bilmay, hangmang bo'lib qolgan edi.

O'. Usmonov



?


1. Rasmda nimalar tasvirlangan?
2. Siz jonivorlarga qanday g'amxo'rlik qilasiz?



SAVOL VA TOPSHIRIQLAR




Yaxshi fazilatlar



Yaxshi bola

Yomon odatlar



Yomon bola

Yuqoridagi kataklarga quyidagi so‘zlardan mosini yozing:

tartibli, dangasa, g‘ayratli, meh-ribon, yolg‘onchi, to‘g‘riso‘z, maqtanchoq, qo‘rqmas, jasur, shirinso‘z, qo‘pol, muloyim, mah-madona, kamtarin.




Yaxshi fazilatlar kishilar tomonidan ardoqlab kelinayotgan ibratli xislatlardir. Yaxshi xislatlar egasi bo‘lishga intiling!



1. Kimlarga o'xshashni xohlaysiz?
2. Do'stlaringiz qanday fazilat egasi bo'lishlarini istaysiz?
3. Sizningcha qanday qilib yaxshi fazilat egasi bo'lishi mumkin?



Rejali bo'lishning uch muhim qoidasi



Gunoh va ayb sanaluvchi xattiharakatlar yomon odatlар hisoblanadi. Yomon odatlardan saqlaning!



Yomon odatlardan qanday qilib qutulish mumkin?



TAKRORLASH

1. Maqolni to‘Idiring:
Ona yurting — beshiging.
 - a) metin;
 - b) chiroylı;
 - c) oltin.

2. Maqolni to‘Idiring:
O‘zga yurtning gulidan,
O‘z yurtingning yaxshi.
 - a) cho‘li;
 - b) tikani;
 - c) maydoni.

3. Maqolni to‘Idiring:
Serjanjal uyda yo‘q.
 - a) rohat;
 - b) ovqat;
 - c) baraka.

4. Shifokor davolay olmaydigan ka-sallik ...
 - a) bosh og‘rig‘i;
 - b) kashandalik;
 - c) manmanlik.

Qo'shimcha o'qish uchun

Yashna, Vatan!

Ey, aziz Vatan —
Jonajonimiz,
Sen bizning shodlik,
Gulistonimiz.
Bizga mehribon,
Sevimli ona,
Berding bizga ilm,
Kitob, darsxona.

Zafar Diyor



!

She'r va rasm asosida "Ona – Vatan bag'rida" mavzusida kichik matn tuzing.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON — OZOD VA OBOD DIYOR

1-SENTYABR — MUSTAQILLIK KUNI	3
BOBOLARDAN MEROS YURT	4
O'ZBEKISTON — JANNAT YURT	6
VATAN BO'YLAB SAYOHAT	8
OILA — KICHIK VATAN	10
MENING OILAM	12
TAKRORLASH	14

ODOB — INSON UCHUN OFTOB

ODOB SALOMDAN BOSHLANADI	15
SALOMLASHISH QOIDALARI	17
ODOBLI BOLA — ELGA MANZUR	18
KIYINISH ODOBI	20
BOLA ODOBI BILAN GO'ZAL	22
DASTURXON ATROFIDA O'TIRISH VA OVQATLANISH ODOBI	26
INSONNI ULUG'LAYDIGAN FAZILATLAR	28
MEHNATSEVARLIK — GO'ZAL FAZILAT	30
ROSTGO'YLIK — INSON KO'RKI	32
KAMTARGA — KAMOL	34

ILM VA HUNAR O'RGANISHGA INTILING

KITOB — BILIM CHIROG'I	36
BILIM OL, HUNAR O'RGAN!	37
HAR KASBNING O'Z XISLATI BOR	40

REJALI ISH — PAND BERMAS	41
XAVFLI VAZIYATLARDA TO'G'RI HARAKAT QILISH	43
KIM BO'LSAM EKAN?	47
QO'G'IRCHOQ TEATRI — TARBIYA MASKANI	48
MENING QO'G'IRCHOQLARIM	49

AJDODLAR XOTIRASI ABADIYDIR

9-MAY — XOTIRA VA QADRLASH KUNI	52
---------------------------------------	----

JONIVORLARGA G'AMXO'R BO'LING

O'ZBEKİSTONNING HAYVONOT OLAMI	54
JONIVORLARGA G'AMXO'RLIK — EZGU FAZILAT	56
SAVOL VA TOPSHIRIQLAR	58
TAKRORLASH	60

Hasanboyeva, Oysha

O-31

Odobnoma: Umumiy o'rta ta'lif maktabalarining 1-sinfi uchun darslik/ O. Hasanboyeva, M. Inoyatova. — Yettinchi nashr — T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. — 64 b.

ISBN 978-9943-07-473-6

UO'T: 17=512.133(075.2)
KBT 74.200.51ya71

O'quv nashri

Oysha Hasanboyeva
Muhayyo Inoyatova

ODOBNOMA

**1-sinf uchun
darslik**

Yettinchi nashr

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent — 2017

Tahririyat mudiri	Anvar Zulfiqorov
Muharrir	Lola Fattoyeva
Badiiy muharrir	Asqar Yoqubjonov
Rassom	Baxtiyor Muhamedov
Dizayner	Umid Sapayev

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2009-y.

26.04.2017-y. da bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70 x 90^{1/16}.

Kegli 18. Ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 4,68. Nashr hisob tabog'i 3,14.
Adadi 572 416 nusxa. 54-sonli shartnoma. 17–182-sonli buyurtma.

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent — 100011, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa
ijodiy uyida bosildi. Toshkent — 100011, Navoiy ko'chasi, 30.